



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 274 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissinging psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyurayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	

“Mustaqil fikrlash”, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “fikrlash kompetensiyasi” tushunchalarining pedagogik mazmuni	196
Kadirova Zarina Ilhomovna	
Tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalarining qo'llanishi	202
Rashidova Nodira Xabibullayevna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyasini rivojlantirish jahon olimlari nigohida.....	205
Mamazoirova Jangil Xamdamovna	
Magistratura tadqiqot amaliyotining bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni	209
Parmanov Jamshid Tag'aymurotovich	
Umumta'lim maktablari matematika to'garagida sferaning elementlarini o'rganish metodikasi	214
Jumayev Erkin Ergashevich, Omonov G'olibjon Tolibovich, Shaxnoza Xolmurodova Zoir qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida o'quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
Norova Nargiza Xalmamat qizi	
Oliy o'quv yurtlarida amaliy mashg'ulotlar – bakalavr yo'nalishidagi matematiklarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi omil.....	224
Abduraxmonov Abdumo'min	
Bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasining samaradorligi	228
Baxronov Rustam Rajabovich	
O'smir o'quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish tarixi.....	231
Botirov Zoir Nuriddin o'g'li	
Husnixatga o'rgatish tamoyillari.....	235
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna	
O'smirlarda suitsidal xavf bilan bog'liq tajovuzkorlik va psixologik determinantlarning kompleks diagnostikasi.....	240
Nahalboyeva Nigora Turdi qizi	
Raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari	245
Sangirova Nilufar Sayfidinovna	
O'smirlilik davrida psixologik o'zgarishlar: omillar, xususiyatlar va psixologik yondashuvlar	251
Usmonova Munira Sayfiddinovna	
Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalar samaradorligi	256
Axmedova Munavvar Numanjanovna	
Tarix darslarida wordmint: o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirishning innovatsion usuli	261
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitishning konseptual-metodologik muammolari	265
Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li	
Menejment ta'limida ekonometrik tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilishning didaktik modeli	269
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	



TARIX DARSLARIDA WORDMINT: O'QUVCHINI FAOL ISHTIROKCHIGA AYLANTIRISHNING INNOVATSION USULI

Eshankulova Ma'mura Davlatovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Guliston shahri



Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o'qitishda WordMint platformasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi WordMint asosidagi interfaol topshiriqlarning o'quvchilar faolligi, motivatsiyasi va tarixiy tushunchalarni o'zlashtirishiga ta'sirini metodik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni o'rganish, qiyosiy tahlil va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Natijalar WordMintdan pedagogik maqsad asosida foydalanish o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirish, tarixiy atamalarni mustahkamlash va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Maqolaning ilmiy yangiligi WordMint topshiriqlarini tarixiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizim sifatida tavsifi etishdan iborat.

Kalit so'zlar: tarix ta'limi, WordMint, raqamli ta'lim, interfaol metod, gamifikatsiya, tarixiy tafakkur, motivatsiya, o'quvchi faolligi, raqamli pedagogika.

Abstract: This article examines the pedagogical potential of using the WordMint platform in teaching history. The purpose of the study is to analyze the role of WordMint-based interactive activities in improving students' engagement, motivation, and understanding of historical concepts. The study uses literature analysis, comparative analysis, and pedagogical observation methods. The findings show that the purposeful use of WordMint can increase student participation, reinforce historical terminology, and support the development of independent thinking. The scientific novelty of the article lies in proposing WordMint activities as a methodological system aimed at developing historical thinking.

Key words: history education, WordMint, digital education, interactive method, gamification, historical thinking, motivation, student engagement, digital pedagogy.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические возможности использования платформы WordMint в преподавании истории. Цель исследования заключается в методическом анализе влияния интерактивных заданий, созданных на основе WordMint, на активность, мотивацию учащихся и усвоение ими исторических понятий. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа и педагогического наблюдения. Полученные результаты показывают, что целенаправленное использование WordMint способствует повышению активности учащихся, закреплению исторических терминов и развитию самостоятельного мышления. Научная новизна статьи заключается в рассмотрении заданий WordMint как методической системы, направленной на развитие исторического мышления.

Ключевые слова: историческое образование, WordMint, цифровое образование, интерактивный метод, геймификация, историческое мышление, мотивация, активность учащихся, цифровая педагогика.

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchiga tayyor bilimni berishdan ko'ra, uni bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarishga yo'naltirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda mazkur yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki tarixiy bilim faqat sana, ism va voqealarni yod olishdan iborat emas. O'quvchi tarixiy jarayonlarning sabab va oqibatlarini tushunishi, voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashi, turli nuqtayi nazarlarni solishtirishi va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishi lozim.

Tadqiqotning obyekti tarix fanini o'qitish jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa WordMint platformasi asosida yaratilgan interfaol topshiriqlarning o'quvchilar faolligi va tarixiy tafakkurini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlaridir.

Tadqiqotning maqsadi tarix darslarida WordMint platformasidan foydalanishning metodik imkoniyatlarini tahlil qilish va undan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.



Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tarix ta'limida interfaol va raqamli yondashuvlarning ahamiyatini o'rganish;
- WordMint platformasining didaktik imkoniyatlarini aniqlash;
- WordMint topshiriqlarini tarix darsining turli bosqichlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- gamifikatsiya elementlarining tarixiy bilimlarni o'zlashtirishdagi o'rnini ko'rib chiqish;
- WordMintdan foydalanishning afzalliklari va mavjud cheklovlarini aniqlash;
- tarix o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning dolzarbligi ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayib borayotgani bilan belgilanadi. Biroq texnologiyani darsga shunchaki kiritishning o'zi ta'lim samaradorligini kafolatlamaydi. Asosiy masala – raqamli vositaning aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi va o'quvchini faol bilish jarayoniga jalb eta olishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. UNESCOning "Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms?" hisobotida raqamli texnologiyalar ta'lim mazmunini turlicha ifodalash, o'quvchilarni hamkorlikka jalb qilish va mashq qilish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etiladi ^[1].

Shu bilan birga, texnologiya o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqotni almashtirmasligi, balki uni qo'llab-quvvatlashi zarurligi ta'kidlanadi. Tarix ta'limida gamifikatsiya masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mazkur yondashuvning dolzarbligini ko'rsatadi. Shen va hammualliflar tarix ta'limida gamifikatsiyadan foydalanishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni bibliometrik jihatdan tahlil qilib, ushbu yo'nalishga qiziqish ortib borayotganini aniqlaganlar ^[2].

Martínez-Hita, Gómez-Carrasco va Miralles-Martínez tadqiqotlarida tarixiy tafakkurga asoslangan gamifikatsiyalashgan loyihaning o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'siri o'rganilgan ^[3].

Suprianto va Yuliantri ham gamifikatsiyaning o'quvchilar motivatsiyasi hamda tarixiy tushunchalarni tushunishiga ta'sirini tadqiq etganlar ^[4].

Scholz va hammualliflar esa tarixni o'qitishda o'yin elementlarini tizimli pedagogik yondashuv asosida loyihalash zarurligini ko'rsatganlar ^[5].

Mazkur tadqiqotlarning umumiy jihati gamifikatsiya va interfaol metodlarning o'quvchi motivatsiyasi hamda ishtirokiga ijobiy ta'sirini o'rganishdan iborat. Ushbu maqolaning o'ziga xosligi esa WordMint platformasining texnik imkoniyatlarini alohida ko'rsatish bilangina cheklanmay, uni tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik vosita sifatida tahlil qilishidadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va pedagogik kuzatish usullaridan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli orqali raqamli ta'lim, gamifikatsiya va tarix ta'limida interfaol metodlardan foydalanishga oid manbalar o'rganildi. Ushbu tahlil WordMintdan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslarini aniqlashga imkon berdi.

Qiyosiy tahlil usuli an'anaviy savol-javob va takrorlash usullarini WordMint asosidagi interfaol topshiriqlar bilan solishtirishda qo'llanildi. Bunda o'quvchi faolligi, mustaqil ishlash imkoniyati, hamkorlik va tarixiy tushunchalarni qayta ishlash jihatlari asosiy mezon sifatida olindi.

Pedagogik kuzatish va metodik tahlil orqali WordMint topshiriqlarining tarix darsining turli bosqichlarida qo'llanish imkoniyatlari o'rganildi. Xususan, motivatsiya, o'tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuga kirish, mustahkamlash, nazorat va refleksiya bosqichlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda topshiriqlarni yaratishda quyidagi metodik tamoyillarga asoslanildi:

- aniq pedagogik maqsad,
- o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga moslik,
- oddiydan murakkabga tamoyili,
- topshiriqdan keyingi mazmunli tahlilni tashkil etish.



TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: Tahlil natijalari WordMint platformasidan tarix darsining turli bosqichlarida foydalanish mumkinligini ko'rsatdi.

Dars bosqichi	WordMintdan foydalanish maqsadi
Tashkiliy-motivatsion bosqich	O'quvchilarning diqqatini mavzuga jalb qilish
O'tgan mavzuni takrorlash	Asosiy tarixiy tushunchalarni esga tushirish
Yangi mavzuga kirish	Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash
Yangi bilimni mustahkamlash	Atama va tarixiy tushunchalarni mustahkamlash
Nazorat	O'zlashtirish darajasini aniqlash
Refleksiya	Dars davomida o'rganilgan tushunchalarni qayta ko'rib chiqish

Natijalar shuni ko'rsatadiki, WordMintdan faqat dars oxirida o'yin sifatida foydalanish yetarli emas. Uni darsning umumiy metodik tuzilmasiga integratsiya qilish talab etiladi.

Tarix fanida faktik materiallar, jumladan, sanalar, tarixiy shaxslar, davlatlar, sulolalar va atamalar katta o'rin egallaydi. WordMint asosida yaratilgan krossvord, so'z qidirish va anagramma topshiriqlari ushbu tushunchalarni qayta eslash va mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, "O'rta asrlar tarixi" mavzusida feodalizm, vassal, senyor, ritsar, natural xo'jalik va manufaktura kabi tushunchalar asosida topshiriqlar tuzish mumkin.

Biroq tahlil davomida oddiy so'zni topish topshirig'i o'z-o'zidan tarixiy tafakkurni rivojlantirmasligi aniqlandi. Shu sababli WordMint topshirig'idan keyin tahliliy savollar berish muhimdir. Masalan, "Amir Temur davri" mavzusida Samarqand, Temur, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Hirot, rasadxona va tuzuklar tushunchalari yashiriladi. O'quvchilar ularni topgach, quyidagi savollar beriladi:

1. Qaysi tushunchalar tarixiy shaxsni bildiradi?
2. Qaysi biri geografik joy hisoblanadi?
3. Qaysi biri tarixiy asar?
4. Qaysi biri ilmiy inshoot?
5. Ular o'rtasida qanday tarixiy bog'liqlik mavjud?

Natijada oddiy so'z qidirish topshirig'i yuqori darajadagi fikrlash faoliyatiga aylanishi mumkin.

Tahlil WordMintdan guruhli gamifikatsiya shaklida foydalanish ham samarali bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, sinfni bir nechta guruhlariga bo'lib, ularga bir xil mazmundagi topshiriqlar beriladi. Bunda baholash faqat tezlikka asoslanmasligi kerak.

2-jadval: Quyidagi baholash mezonlaridan foydalanish mumkin

Mezon	Ball
Topshiriqni to'g'ri bajarish	3 ball
Tarixiy atamalarning mazmunini tushuntirish	2 ball
Guruhdagi hamkorlik	1 ball
Qo'shimcha tarixiy fakt keltirish	1 ball

Ushbu yondashuv o'quvchini faqat birinchi bo'lib topshiriqni bajarishga emas, balki uning tarixiy mazmunini tushunishga ham yo'naltiradi.

Tahlil natijasida WordMintdan foydalanishning quyidagi asosiy pedagogik imkoniyatlari aniqlandi:

1. **O'quvchi faolligining oshishi.** Interfaol topshiriqlar ko'proq o'quvchilarni bir vaqtning o'zida faol ishlashga jalb qilish imkonini beradi.
2. **Motivatsiyaning kuchayishi.** Izlash, topish va natijaga erishish jarayoni o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.
3. **Bilimlarning mustahkamlanishi.** Tarixiy ma'lumotlar turli shakllarda qayta ishlanishi natijasida ularni takrorlash imkoniyati kengayadi.
4. **Hamkorlikning rivojlanishi.** Guruhli topshiriqlar o'quvchilarni fikr almashish va umumiy qarorga kelishga o'rgatadi.

5. Tarixiy tafakkurning rivojlanishi. Agar topshiriqdan keyin taqqoslash, sabab-oqibatni aniqlash va xulosa chiqarishga oid savollar berilsa, o'quvchilar faktlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga o'rganadi.

Shu bilan birga, tahlil davomida bir qator muammolar ham aniqlandi. Birinchidan, barcha o'quvchilarda internet yoki mos texnik qurilma mavjud bo'lmashligi mumkin. Ikkinchidan, o'yin elementi tarixiy mazmundan ustun kelib qolish xavfi mavjud. Uchinchidan, topshiriqning haddan tashqari oson yoki murakkab bo'lishi uning pedagogik samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Shuning uchun WordMint topshiriqlaridan foydalanishda har bir topshiriqning aniq maqsadi belgilanishi, o'quvchilarning yosh va bilim darajasi hisobga olinishi hamda topshiriqdan keyin albatta mazmunli muhokama tashkil etilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida tarix darslarida WordMint platformasidan maqsadli foydalanish o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirish, tarixiy atamalarni mustahkamlash hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Biroq WordMintning pedagogik samaradorligi uning texnik imkoniyatlarining o'ziga emas, balki o'qituvchining metodik yondashuviga bog'liq. Oddiy krossvord yoki so'z qidirish topshirig'i faqat yodlash darajasida qolib ketishi mumkin. Agar bunday topshiriqlar tarixiy tahlil, taqqoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va xulosa chiqarish bilan uyg'unlashtirilsa, ular yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- har bir WordMint topshirig'i aniq pedagogik maqsad asosida ishlab chiqilishi;
- topshiriqlarda faktlar bilan bir qatorda tarixiy tushunchalarga ham e'tibor qaratilishi;
- topshiriqlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilishi;
- individual va guruhli faoliyat navbat bilan qo'llanilishi;
- tezlikdan tashqari tarixiy mazmunni tushuntirish ham baholanishi;
- har bir topshiriqdan keyin tahliliy savol va muhokama tashkil etilishi;
- WordMint yakuniy baholashning yagona vositasi sifatida emas, asosan formativ baholash vositasi sifatida qo'llanilishi;
- internet imkoniyati cheklangan holatlar uchun topshiriqlarning qog'oz variantlari ham tayyorlanishi tavsiya etiladi.

Umuman, WordMintni tarix darslariga joriy etishda "texnologiya uchun texnologiya" yondashuvidan voz kechish zarur. Texnologiya pedagogik maqsadga xizmat qilgan taqdirdagina o'quvchini tayyor ma'lumotni passiv qabul qiluvchi emas, balki izlanadigan, tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan faol ta'lim ishtirokchisiga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms? Paris: UNESCO, 2023.
2. Shen X., Li J., Li M., Karimi A. A 29-Year (1994-2023) Bibliometrics Analysis of Usage of the Gamification in History Education. *European Journal of Education*. 2025. Vol. 60. Issue 4. e70256.
3. Martínez-Hita M., Gómez-Carrasco C. J., Miralles-Martínez P. The effects of a gamified project based on historical thinking on the academic performance of primary school children. *Humanities and Social Sciences Communications*. 2021. Vol. 8. Article 122.
4. Suprianto S., Yuliantri R. D. Application of gamification in history learning: Its impact on students' motivation and understanding of historical concepts. *Jurnal Praksis dan Dedikasi Sosial*. 2025. Vol. 8, No. 1. P. 186–196.
5. Scholz K. W., Komornicka J. N., Moore A. Gamifying History: Designing and Implementing a Game-Based Learning Course Design Framework. *Teaching & Learning Inquiry*. 2021. Vol. 9, No. 1.
6. Kornienko S. S., Semerikov S. O. Gamification of history education: a systematic review. *Social Sciences & Humanities Open*. 2026. Under review.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.